

YALPI ICHKI MAHSULOTDA SANOAT ULUSHI VA UNI YANADA OSHIRISH YO'NALISHLARI

Gizbillayeva Charos Xayrulla qizi

Toshkent arxitektura-qurilish Universiteti

Arxitektura fakulteti Interyer Dizayn yo'nalishi

1-kurs talabasi

tkadirov900@gmail.com

Mavlonova Nurxon Ismoiljonovna

Toshkent arxitektura-qurilish Universiteti

Arxitektura fakulteti tyutori

nurxonmavlonova3@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.02.2026

Revised: 05.02.2026

Accepted: 06.02.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Sanoat, yalpi ichki
mahsulot, korxona,
sanoat ulushi, sanoat
mahsulotlari, ishlab
chiqarish.*

*Mazkur maqolada iqtisodiyotning asosiy tarmog'i
bo'lgan sanoat
va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
ko'rsatkichlari tahlil qilinib, sanoat siyosatini
yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
yoritib berilgan.*

Kirish

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha sohalari qatorida sanoat tarmoqlarida ham juda katta o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Respublika iqtisodiyotida muhim o'rinda turadigan sanoat tarmoqlarida tuzilmaviy qayta tarkiblash ishlari amalga oshirildi. Chet el kapitali bilan hamkorlikda sanoat tarmoqlarida

ko'plab kichik va o'rta korxonalar hamda qo'shma korxonalar tashkil etilib, ushbu tarmoqlarda milliondan ortiq ishchi faol mehnat jarayonini amalga oshirib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlikni taminlash, mavjud ish o'rinlarini saqlab qolish va yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishda milliy iqtisodiyotning sanoat korxonalari muhim o'rin tutadi, hamda mamlakat sanoati iqtisodiyotning asosiy "Driver" laridan biriga aylanib ulgurgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi sharoitlarda mamlakat sanoati innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yoki yanada mukammal mahsulot, ishlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga harakat qilsa, uning rivojlanishi yanada samarali va raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida sanoatni rivojlantirish hamda qo'shimcha zahiralarni aniqlash masalalari bo'yicha o'tgan videoselektor yig'ilishida ham, ayrim hududlarda natijalar imkoniyat darajasida emas, shu bois joriy yilda sanoatni rivojlantirish, sohaga investitsiyalarni ko'paytirish va zaxiralarni ishga solish chora-tadbirlari muhokama qilindi. Hamda, davlatimiz rahbari sanoat uchun yangi imkoniyatlar va qo'shimcha moliyaviy resurslar berilishini takidlagi. O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish suratlarini oshirishga intilish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish uchun chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishdan iborat. Mazkur maqolada iqtisodiy rivojlanish va uning salohiyatini, shuningdek bunday rivojlanishning sanoat tarmoqlarida, shu jumladan, yuqori texnologik ishlab chiqarishda innovatsiyalarning ko'payishiga ta'sirini baholash imkonini beradigan model ko'rinishida namoyish etishga harakat qilamiz.

Asosiy qism

Respublikada faoliyat ko'satayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari bugungi kunda (2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra) 69,2 mingtani tashkil etib, bu miqdorning 10231 tasi yoki 14,5 foizi shu yilning o'zida tashkil etilgan korxonalar hisoblanadi, bundan 11,6 mingtasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 16,7% i) Toshkent shahriga, 7,8 mingtasi (11,3%) Farg'ona viloyatiga, 7,1 mingtasi (10,3%) Toshkent viloyatiga, 6,1 mingtasi (8,9%) Samarqand viloyatiga va 5,5 mingtasi (7,9%) Andijon viloyatiga to'g'ri kelmoqda. Kelgusida bu sanoat korxonalarini mahsulot ishlab chiqarishini sifat tomondan ham yuksak rivojlantirib, nafaqat ichki bozordagi, balki dunyo bozoridagi mamlakatimizning o'rnini yanada mustahkamlashdan hamda "daromadi o'rtachadan yuqori

bo'lgan davlatlar" qatoriga qo'shishdan iborat. Chunki, sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiyasi tavsifida o'z ifodasini topadi. Zero, O'zbekistondek ko'hna, qadimiy va buyuk siymolar yurti bo'lgan davlatni ham hozirgi kundagi dunyoning eng ilg'or davlatlari hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Italiya va boshqa bir qator davlatlar iqtisodi, sanoati, ishlab chiqarish darajasi hamda eng muhimi YaIM darajasiga chiqara olishdir. ma'lumotlariKelgusida bu sanoat korxonalarini mahsulot ishlab chiqarishini sifat tomondanham yuksak rivojlantirib, nafaqat ichki bozordagi, balki dunyo bozoridagi mamlakatimizning o'rnini yanada mustahkamlashdan hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga qo'shishdan iborat. Chunki, sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiyasi tavsifida o'z ifodasini topadi. Zero, O'zbekistondek ko'hna, qadimiy va buyuk siymolar yurti bo'lgan davlatni ham hozirgi kundagi dunyoning eng ilg'or davlatlari hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Italiya va boshqa bir qator davlatlar iqtisodi, sanoati, ishlab chiqarish darajasi hamda eng muhimi YaIM darajasiga chiqara olishdir. Kelgusida bu sanoat korxonalarini mahsulot ishlab chiqarishini sifat tomondan ham yuksak rivojlantirib, nafaqat ichki bozordagi, balki dunyo bozoridagi mamlakatimizning o'rnini yanada mustahkamlashdan hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga qo'shishdan iborat. Chunki, sanoat shunday tarmoqki, barcha mamlakatlarning siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy intilishlari, ularning xo'jalik jihatdan birlashishi, ya'ni iqtisodiy integratsiyasi tavsifida o'z ifodasini topadi. Zero, O'zbekistondek ko'hna, qadimiy va buyuk siymolar yurti bo'lgan davlatni ham hozirgi kundagi dunyoning eng ilg'or davlatlari hisoblanmish Amerika Qo'shma Shtatlari, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Rossiya, Italiya va boshqa bir qator davlatlar iqtisodi, sanoati, ishlab chiqarish darajasi hamda eng muhimi YaIM darajasiga chiqara olishdir. Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi sanoati taxlilini davom ettiradigan bo'lsak, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida butun Respublika korxonalari tomonidan jami 400,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 105,8% ni tashkil etadi. Viloyatlar kesimi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy tashkil etgan bo'lib, mos ravishda 76 674,5 mlrd. 64 597,2 mlrd. va 64 481,8 mlrd.

soʻmlarni tashkil etadi. Eng quyi koʻrsatkichlarni Surxondaryo viloyati 4 596,9 mlrd. soʻm, Sirdaryo viloyati 9 424,1 mlrd. soʻm, Qoraqalpogʻiston Respublikasi 10 546,4 mlrd. soʻm bilan qayd etgan. Oʻzbekiston sanoatini rivojlantirishda “Navoiy” erkin iqtisodiy hamda “Angren” va “Jizzax” maxsus industrial zonalarining roli juda yuqori hisoblanadi. Mazkur iqtisodiy zonalar: jahon standartlariga javob beradigan va jahon bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni taminlay oladigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qiladigan, hududlarning sanoat salohiyatini rivojlantira oladigan, yuqori raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqara oladigan hamda katta miqdorda qoʻshimcha ish oʻrinlarini yarata oladigan zonalar hisoblandi. Oʻzbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomidan imzolangan farmonga asosan Navoiy viloyati 2030 yil 1 yanvarga qadar innovatsion, yuqori texnologiyali, eksportga yoʻnaltirilgan va import oʻrnini bosuvchi ishlab chiqarish uchun erkin iqtisodiy zona sifatida belgilandi. Farmonga asosan “Navoiy EIZ” maqomini olgan korxonalar bir qancha toʻlovlardan jumladan; yer soligʻi, daromad soligʻi, yuridik shaxslar mol-mulk soligʻi va bir qancha boshqa soliq turlaridan ozod qilinishi belgilangan. Manba: Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan. Deyarli barcha mamlakatlarning asosiy iqtisodiy koʻrsatkichlaridan birini belgilab beruvchi YaIM (Yalpi ichki mahsulot) hajmi Oʻzbekistonda ham yildan- yilga rivojlanib bormoqda. Xususan, birgina sanoatning Yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushini oladigan boʻlsak, 2017-2022 yillarda bu sohada 21,1 foizdan 26,7 foiz oʻsishga erishildi. Va, bu davrda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi oʻsish 41,3 foizni tashkil qilgan. Natijada, bunday barqaror oʻsish yalpi ichkinaxsulotda sanoatning ulushi sezilarli ortishiga olib kelgan. Va bu “parametr”lar kelgusi yillarda yanada oshishi kutilmoqda. Hozirgi kunda Oʻzbekiston sanoatining 83,2 foizini ishlab chiqarish sanoat tarmogʻi tashkil etadi. Bu yuqori qoʻshimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, xomashyoni qayta ishlash darajasini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tarmoqlarni rivojlantirish kompleks dasturlarini hayotga tatbiq etilyotgani natijasidir. Xususan, oʻtgan davr mobaynida oʻrta va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushi 52,7 foizdan 61,7 foizga oʻsdi va bu ham sanoatning tarkibi, sifat tomonidan yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Bu ichki bozorda ham, tashqi bozorda ham xaridorgir boʻlgan yuqori qoʻshimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish koʻlami oshgani dalilidir. Zero, 2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham; “Milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan

siyosatni davom ettirib, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga oshirish zarur bo'lmoqda. Shu tufayli sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayoni tizimli ravishda amalga oshirilmoqda" deya belgilab qo'yilgan. Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika agentligi ma'lumotlarasosida muallif tomonidan tuzilgan. Iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, ya'ni iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va uning tashqi hamda ichki o'zgarishlarga moslashishi zaruriyatini aniqlovchi ishlab chiqarish kuchlarining katta miqdordagi tarkibiy o'zgarishlarini ifodalaydi. Bunda muhim maqsad: ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, jumladan korxonalarning samarasiz bo'g'inlarini yo'q qilish yoki qo'shib yuborish, jismonan va ma'nan eskirgan asosiy vositalarni almashtirish hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishdir. Bularning bari tarmoqlararo, hududiy, texnologik, institusional va ishlab chiqarishning boshqamuhim tarkibiy siljishlariga olib keladi. Xomashyo ishlab chiqarish jarayonining asosiy elementi sifatida sanoat ishlab chiqarishiga va uning iqtisodiga katta ta'sir o'tkazadi. Sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlarida xomashyo va yoqilg'i xarajatlari, ishlab chiqarishga sarflangan xarajatlar hajmida eng katta salmoqqa ega. Shuning uchun, sanoat korxonalari faoliyatining iqtisodiy ko'rsatkichlari ko'p jihatdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish Sanoat mahsuloti tannarxida xomashyo, yordamchi materiallar va yoqilg'i xarajatlari butun sanoat bo'yicha o'rtacha 70 foizni tashkil etadi. Shuning uchun xomashyoni tejab ishlatish sanoat mahsuloti tannarxini pasaytirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan oqilona foydalanish va ishchilar mehnatining unumdorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Tarkibiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri sanoat va uning tarmoqlarida tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish hamda eng maqbul sanoat tuzilmasini shakllantirishdan iborat. Hozirgi kunda sanoatning shakllangan tuzilmasi bozor mezonlariga qanchalik mos kelishini tanqidiy nuqtai-nazardan baholash, qaysi tarmoq va sohalar kerakli talab darajasida rivoj topmayotganligini hamda sust rivojlanayotgan tarmoqlarni aniqlash, tuzilmaviy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri sanaladi. So'nggi yillarda sanoat tarmoqlari tarkibida sanoat tarmoqlarining yanada maydalanib borishi, yangi-yangi tarmoqlar vujudga kelishi, tarmoqlar orasida integratsiya jarayonlari rivojlanishi, tarmoqlararo majmualar shakllanishi, fan- texnika yutuqlari bilan bevosita bog'liq tarmoqlarning tezroq rivojlanishi kabi bir qator o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Xulosa

Mamlakatdagi sanoat korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirish va barqarorligini ta'minlash uchun quyidagilarni mustaqil tadqiqotlar natijasi sifatida taklif etamiz;

- Zamonaviy axborot vositalari va texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish va undan unumli foydalanish (Avtomatlashtirilgan robotlar, suniy intellektlar va boshqalar);

- Kichik va o'rta biznes subyektlarining ishlab chiqarish faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, soliq tizimida ularga nisbatan yengilliklar yaratish va har tomonlama yetuk, chet elda malaka oshirib qaytgan kadrlar bilan to'ldirish;

- Tayyor va yarim tayyor mahsulotlar va materiallarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish va natijada katta-katta sanoat korxonalari butlovchi qismlarni chet eldan import qilishi emas balki, o'zimizdan xarid qilishini taminlash;

- Mavjud korxonalarining hozirgi holatidan kelib chiqib, manan va jismonan eskirgan texnologiyalar va jihozlar o'rniga yangi, zamonaviy, hozirgi zamon talablariga to'liq javob bera oladigan jihozlar bilan taminlash va natijada korxonaning to'liq quvvatda ishlashini taminlash balki yillik ishlab chiqarish quvvatini ham bir necha barobarga oshirish. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning jahon mehnat taqsimotidagi ro'li va o'zni yuksalib borishini ta'minlaydigan energetika, kimyo, to'qimachilik va yengil sanoat, neft-gaz, rangli metallurgiya, mashinasozlik va avtomobilsozlik kabi ustuvor tarmoqlarni ildam rivojlantirishga qaratilgan sanoatdagitarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, jahon bozoriga doimiy xaridorgir bo'lgan, yuqori raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish hamda bugungi taraqqiyot talabi darajasidagi malakali kadrlar bilan ta'minlash sohada ulkan natijalarga erishishimkonini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Musaxon Isakov, Dilobar Ro'ziyeva. "O'zbekiston sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlar", Impress Media Toshkent-2019.

2. Xotamov I., Madrahimova G. "Real sektor korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish", Iqtisodiyot Toshkent 2019.

3. N. M. Mahmudov, S. O. Xomidov. "O'zbekiston sanoati: Rivojlanish omillari, tendensiyasi va muammolari", Iqtisodiyot Toshkent 2017.

4. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy veb-sayti

5. www.president.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti

6. www.gazeta.uz Internet nashri.

7. www.yuz.uz Internet nashri.

